
BUVAYDA TUMANI FERMERLARI PAXTA YETISHTIRISH SHARTNOMAVIY REJANI BAJARISHDA VODIYDA BIRINCHI BO'LDI

Paxtachilikda o'ziga xos boy tajribaga ega bo'lgan Buvayda tumani fermerlari paxta yetishtirish shartnomaviy rejasini vodiyya birinchi bo'lib bajardilar.

Joriy yilda tumanda 206 ta fermer xo'jaliklari tomonidan 5 ming hektar maydonda g'o'za parvarish qilinib, 18 ming 600 tonnadan ziyod paxta hosili topshirildi.

"Saminjon ota ASK", "Qo'ng'irot zamin ko'rki", "Patilaxon", "Yulduz", "Alqor agrotex", "Sahovatli Bachqir zamini" kabi fermer xo'jaliklarida o'rtacha 50 tsentnerdan ortiq hosil olinib, yuqori ko'rsatkichlarga erishildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, joriy yilda buvaydaliklar pilla va g'alla yetishtirishda ham vodiyya birinchi bo'ldi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-11-04 09:22:57